



2017-yil 20-noyabr

# **Davlat mulki ob'ektlarini sotish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4933-sonli Farmoni ijrosiga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari - Vazirlar Mahkamasi Komplekslari va O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi rahbarlari hamda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda barcha toifadagi ob'ektlar to'liq hatlovdan o'tkazilganligi va O'zbekiston Respublikasi "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xususiylashtirilmaydigan strategik davlat mulki ob'ektlari ro'yxati xamda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga binoan amalga oshiriladigan davlat mulki ob'ektlari ro'yxati belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Xususiylashtirilmaydigan, strategik davlat mulki ob'ektlarining yagona ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga binoan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan davlat mulki ob'ektlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xususiylashtirish to'g'risidagi qarorlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan qabul qilinadigan davlat mulki ob'ektlarini belgilash mezonlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, mazkur qarorning 2-ilovasida nazarda tutilgan hamda 3-ilovada nazarda tutilgan belgilangan mezonlar asosida davlat mulki ob'ektlarini sotish Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 6 oktyabrdagi "Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 279-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga

takliflar kiritsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**Sh. Mirziyoev**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

***O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi PQ-3067-sonli qaroriga 1-ILOVA***

**Xususiylashtirilmaydigan, strategik**

**davlat mulki ob'ektlarining**

**YaGONA RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Davlat mulki ob'ektining nomi</b>	<b>Hudud</b>
<b>I. ALOHIDA MUHIM DAVLAT MULKI OB'eKTLARI</b>		
	O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi	
1.	Qonunining 4-moddasiga muvofiq davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan davlat mulki ob'ektlari	
2.	Alohida muhim va kategoriyalangan ob'ektlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha	
<b>II. DAVLAT KORXONALARI, XO'JALIK JAMIYATLARDAGI DAVLAT ULUSHLARI (AKTSIYALAR)</b>		
<b>Vazirlar Mahkamasi</b>		
3.	"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" DUK	Navoiy viloyati
4.	"Vostok" DUK	Toshkent sh.
5.	"Sifat" O'zbekiston paxtasini sertifikatlash markazi"	Toshkent sh.
6.	"O'zmaxsusimpeks" DUK	Toshkent sh.
<b>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi</b>		
7.	"O'zbektelekom" AJ	Toshkent sh.
8.	"Radioaloqa, radioeshittirish va televidenie Markazi" DUK	Toshkent sh.
9.	"O'zimpeksaloqa" MChJ	Toshkent sh.
<b>Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi</b>		
10.	"Amudaryo havzasi suv xo'jaligi birlashmasi" DUK	Xorazm viloyati
11.	"G'o'za urug'chiligi" Respublika markazi" DUK	Toshkent sh.
12.	"O'zsuvekspertiza" DUK	Toshkent sh.
13.	"Bo'zsuv" irrigatsiya tizimi boshqarmasi" DUK	Toshkent sh.
<b>Tashqi ishlar vazirligi</b>		
14.	"O'zdiptransxizmat" DUK	Toshkent sh.
15.	"Diplomatik vakolatxonalarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi" DUK	Toshkent sh.
16.	"Jahon axborot agentligi" DUK	Toshkent sh.
<b>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi</b>		
17.	"Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi" DUK	Toshkent sh.
<b>er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi</b>		

18.	"Kartografiya" DUK	Toshkent sh.
<b>Fanlar akademiyasi</b>		
19.	"Respublika radioaktiv chiqindilarni ko'mish korxonasi" DUK	Toshkent sh.
<b>"O'zbekneftegaz" MXK</b>		
20.	"O'zgeoburguneftegaz" AK	Qashqadaryo viloyati
21.	"O'zbekgeofizika" AJ	Toshkent viloyati
22.	"O'zbekneftegaz" MXK	Toshkent sh.
23.	"O'zneftgazqazibchiqarish" AK	Toshkent sh.
24.	"O'zneftmahsulot" AK	Toshkent sh.
25.	"O'ztransgaz" AK	Toshkent sh.
<b>Markaziy bank</b>		
26.	"Toshkent qog'oz fabrikasi" DUK	Toshkent viloyati
27.	"Toshkent bosma fabrikasi" DUK	Toshkent sh.
28.	"Toshkent zarbxonasi" DUK	Toshkent sh.
29.	"Garov Reestri" DUK	Toshkent sh.
30.	"Inkassatsiya xizmati" DUK	Toshkent sh.
31.	"Davlat belgisi" DUK	Toshkent sh.
<b>Tijorat banklar</b>		
32.	"Xalq banki" ATB	Toshkent sh.
33.	"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" UK	Toshkent sh.
<b>Boshqalar</b>		
34.	"Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi" DUK	Toshkent viloyati
35.	"O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ	Toshkent viloyati
36.	"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ	Toshkent viloyati
37.	"O'zagrotexsanoatxolding" AJ	Toshkent sh.
38.	"O'zeltexsanoat" AK	Toshkent sh.
39.	"O'zavtosanoat" AK	Toshkent sh.
40.	"O'zdonmahsulot" AK	Toshkent sh.
41.	"O'zkimyosanoat" AJ	Toshkent sh.
42.	"O'zagrokimyoximoya" AJ	Toshkent sh.
43.	"O'zbekenergo" AJ	Toshkent sh.
44.	"O'zbekgidroenergo" AJ	Toshkent sh.
45.	"O'zbekengilsanoat" AJ	Toshkent sh.
46.	"O'zqurilishmateriallari" AJ	Toshkent sh.
47.	"O'zbekoziqovqatxolding" XK	Toshkent sh.
48.	"O'zvinosanoat-xolding" XK	Toshkent sh.
49.	"O'zpaxtasanoateksport" XK	Toshkent sh.
50.	"Respublika don mahsulotlarini himoya qilish ekspeditsiyasi" DUK	Toshkent sh.
51.	"O'zbekiston havo yo'llari" MAK va uning davlat unitar korxonalari	Toshkent sh.
52.	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	Toshkent sh.
53.	"O'simliklar karantini ilmiy markazi" DUK	Toshkent sh.

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar bo'yicha**

54.	Aeroportlar	
55.	Maxsus aloqa bog'lanmalari	
56.	Davlat televidion, radioaloqa va radiouzatish korxonalari	
57.	O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining Davlat korxonalari	
58.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr xizmati davlat korxonalari	
59.	Tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr xizmati davlat korxonalari	
60.	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hududiy tuzilmasining Davlat ekspertiza boshqarmalari	
61.	Erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari	

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining  
qarorlariga asosan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiyashtiriladigan  
davlat mulki ob'ektlari**

**RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Davlat mulki ob'ektining nomi</b>	<b>Hudud</b>
<b>Davlat korxonalari, xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushi (aksiyalar)</b>		
<b>Sog'liqni saqlash vazirligi</b>		
1.	"O'zmedpribor" DUK	Toshkent sh.
2.	"Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi" AJ	Toshkent sh.
3.	"Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" AJ	Toshkent sh.
4.	"Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" AJ	Toshkent sh.
5.	"Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi" AJ	Toshkent sh.
6.	"Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya markazi" AJ	Toshkent sh.
7.	"Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi markazi" AJ	Toshkent sh.
8.	"O'ztibloyiha" MChJ	Toshkent sh.
<b>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarinirivojlantirish vazirligi</b>		
9.	"O'zinfokom" DUK	Toshkent sh.
10.	"Aloqaloyiha" DUK	Toshkent sh.
11.	"UNICON.UZ Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" DUK	Toshkent sh.
12.	"Respublika axborot-kutubxona markazi" DUK	Toshkent sh.
13.	"O'zbekiston pochta" AJ	Toshkent sh.
14.	"Matbuot tarqatuvchi" AJ	Toshkent sh.
<b>Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi</b>		
15.	"Amudaryodavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
16.	"Fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarni qayta tayyorlash va markazi"	Qoraqalpog'iston Respublikasi
17.	"Kegeylidavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
18.	"Davlat nav sinash stantsiyasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
19.	"Xo'jaylidavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
20.	"Davlat nav sinash stantsiyasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
21.	"Davlat nav sinash uchastkasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
22.	"Andijondavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Andijon viloyati
23.	"Jalaqudukdavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Andijon viloyati
24.	"Ulug'nordavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Andijon viloyati
25.	"Buxoro veterinariya-sanitariya chiqindi zavodi" DUK	Buxoro viloyati
26.	"Buxorodavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Buxoro viloyati
27.	Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining Buxoro filiali huzuridagi "Fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi" DUK	Buxoro viloyati
28.	"Qorako'ldavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Buxoro viloyati
29.	"Romitandavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Buxoro viloyati
30.	"Shofirkondavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Buxoro viloyati
31.	"Jizzax shahardavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Jizzax viloyati
32.	"Uchtepadavsuvmaxsuspuadrat" DUK	Jizzax viloyati

33.	"Mirzacho'ldavsuvmaxsuspudrat" DUK	Jizzax viloyati
34.	"Paxtakordavsuvmaxsuspudrat" DUK	Jizzax viloyati
35.	"Kosondavsuvmaxsuspudrat" DUK	Qashqadaryo viloyati
36.	"Kasbidavsuvmaxsuspudrat" DUK	Qashqadaryo viloyati
37.	"Nishondavsuvmaxsuspudrat" DUK	Qashqadaryo viloyati
38.	"Yakkabog' davsuvmaxsuspudrat" DUK	Qashqadaryo viloyati
39.	"Karmana davsuvmaxsuspudrat" DUK	Navoiy viloyati
40.	"Navoiy davsuvmaxsuspudrat" DUK	Navoiy viloyati
41.	"Namangandavsuvmaxsuspudrat" DUK	Namangan viloyati
42.	"Suvloyihalash" Namangan ekspeditsiyasi" DUK	Namangan viloyati
43.	"Irrigatsiya o'rmon xo'jaligi" DUK	Namangan viloyati
44.	"Mingbuloq davsuvmaxsuspudrat" DUK	Namangan viloyati
45.	"Davlat nav sinash stantsiyasi" DUK	Namangan viloyati
46.	"Norinbuloqdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Namangan viloyati
47.	"Popdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Namangan viloyati
48.	"Okdaryodavsuvmaxsuspudrat" DUK	Samarqand viloyati
49.	"Bulung'urdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Samarqand viloyati
50.	"Fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi" DUK	Samarqand viloyati
51.	"Narpaydavsuvmaxsuspudrat" DUK	Samarqand viloyati
52.	"Samarqanddavsuvmaxsuspudrat" DUK	Samarqand viloyati
53.	"Termizdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Surxondaryo viloyati
54.	"Qiziriqdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Surxondaryo viloyati
55.	"Surxonnasosta'mir" DUK	Surxondaryo viloyati
56.	"Uzundavsuvmaxsuspudrat" DUK	Surxondaryo viloyati
57.	"Sheroboddavsuvmaxsuspudrat" DUK	Surxondaryo viloyati
58.	"Oqoltindavsuvmaxsuspudrat" DUK	Sirdaryo viloyati
59.	"Boyovutdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Sirdaryo viloyati
60.	"Gulistondavsuvmaxsuspudrat" DUK	Sirdaryo viloyati
61.	"Bo'kadavsuvmaxsuspudrat" DUK	Toshkent viloyati
62.	"Yuqorichirchiqdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Toshkent viloyati
63.	"Yangiyo'ldavsuvmaxsuspudrat" DUK	Toshkent viloyati
64.	"Bog'doddavsuvmaxsuspudrat" DUK	Farg'ona viloyati
65.	"Farg'onadavsuvmaxsuspudrat" DUK	Farg'ona viloyati
66.	"Bog'otdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Xorazm viloyati
67.	"Xorazmdrenaj" DUK	Xorazm viloyati
68.	"Urganchdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Xorazm viloyati
69.	"Qushko'pirdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Xorazm viloyati
70.	"Hazoraspdavsuvmaxsuspudrat" DUK	Xorazm viloyati
71.	"Yangibozordavsuvmaxsuspudrat" DUK	Xorazm viloyati
72.	"O'zmaxsussuvqurilish" DUK	Toshkent sh.
73.	"Toshkent magistral kanali boshqarmasi" DUK	Toshkent sh.
74.	"Qishloq xo'jalik korxonalarini tarkibiy qayta tuzish loyihasini amalga oshirish agentligi" DUK	Toshkent sh.
75.	"O'zsuvloyiha" DUK	Toshkent sh.
76.	"Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot markazi" DUK	Toshkent sh.
77.	"Toshkent viloyati ichimlik suv ishlab chiqarish, taqsimlash va boshqarish trest" DUK	Toshkent sh.
78.	"O'zgioproo'rmonloyiha" DUK	Toshkent sh.
79.	"O'zsuvxorijiyqurilish" DUK	Toshkent sh.
80.	"O'zsoovetta'minotxizmat" DUK	Toshkent sh.
81.	"O'zsuvloyiha" AJ	Toshkent sh.
82.	"Suvsanoatmash" AJ	Toshkent sh.
83.	"Suv mash" AJ	Toshkent sh.
84.	"O'zagrosanoatloyiha" MChJ	Toshkent sh.

### **Tashqi savdo vazirligi**

	"Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi Direktsiyasi" DUK	
85.	O'zR Prezidentining 01.11.2017 y. PF-5223-son Farmoniga muvofiq 85-pozitsiya o'z kuchini yo'qotgan	Toshkent sh.
86.	"O'z tadbirkoreksport" AJ	Toshkent sh.

87.	"O'zsanoateksport" AJ	Toshkent sh.
88.	"O'zbekekspertiza" AJ	Toshkent sh.
89.	"O'rta Osiyo trans" AJ	Toshkent sh.
90.	"Xalqaro hamkorlik markazi" AJ	Toshkent sh.
<b>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi</b>		
91.	"Bank-texnologiyalari" DUK	Toshkent sh.
92.	"Yuqori texnologiyalar o'quv-tajriba markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Tashqi ishlar vazirligi</b>		
93.	"Ko'chmas mulk bilan ishlash direksiyasi" DUK	Toshkent sh.
94.	"Ambassador" DUK	Toshkent sh.
<b>Madaniyat ishlari vazirligi</b>		
95.	"Madaniyat va dam olish markazi " DUK	Chirchiq sh.
96.	"Tomosha" bolalar musiqali teatr studiyasi" DUK	Toshkent sh.
97.	"Sug'diyona" davlat milliy orkestri" DUK	Toshkent sh.
98.	"Shosh ijodkorlari" DUK	Toshkent sh.
99.	"Yoshlar madaniyat va san'at markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Xalq ta'limi vazirligi</b>		
100.	"O'quvchi" o'quv-ishlab chiqarish tajriba xo'jaligi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
101.	"Respublika ilmiy-pedagogik kutubxonasi" DUK	Toshkent sh.
<b>Moliya vazirligi</b>		
102.	"O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Axborot hisoblash markazi"" DUK	Toshkent sh.
103.	"O'zmeliomashlizing" DUK	Toshkent sh.
<b>Adliya vazirligi</b>		
104.	"O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi</b>		
105.	"To'yamuyun-Nukus" mintaqalararo suv ta'minoti tarmoqlaridan foydalanish boshqarmasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
106.	"Suvsoz" DUK	Toshkent viloyati
107.	"Ko'p qavatli uylar, issiqlik ta'minoti ob'ektlarini qurish injiniring kompaniyasi" DUK	Toshkent sh.
108.	"Suv ta'minoti va kanalizatsiya ob'ektlarini qurish injiniring kompaniyasi" DUK	Toshkent sh.
109.	"Toshhissiqquvati" DUK	Toshkent sh.
110.	"Toshshaharnur" DUK	Toshkent sh.
111.	"Toshkentliftxizmati" DUK	Toshkent sh.
112.	"Maxsustrans" DUK	Toshkent sh.
113.	"Toshkent favvorasi" DUK	Toshkent sh.
114.	"Damxo'ja" mintaqalararo suv ta'minoti tarmoqlaridan foydalanish boshqarmasi"	Toshkent sh.
115.	"O'zbekkommunalloyihaqurilish" DUK	Toshkent sh.
116.	"Kommunal o'quv" o'quv-uslubiy markazi"" DUK	Toshkent sh.
117.	"ToshuyjoyLITI" AJ	Toshkent sh.
118.	"Toshkent viloyati Chimyon-Chorvoq rekreatsiya hududi mintaqalararo suv ta'minoti tarmoqlaridan foydalanish boshqarmasi" DUK	Toshkent viloyati
119.	"To'yamuyun-Urganch" mintaqalararo suv ta'minoti tarmoqlaridan foydalanish boshqarmasi" DUK	Xorazm viloyati
120.	"Ta'mirlash-tiklash xizmati" DUK	barcha hududlarda
121.	Suv ta'minoti davlat korxonalar va muassasalari	barcha hududlarda
122.	Issiqlik ta'minoti davlat korxonalar va muassasalari	barcha hududlarda
<b>Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi</b>		
123.	"O'zekspomarkaz" AJ	Toshkent sh.
<b>Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi</b>		
124.	"Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Toshkent sh.
125.	"O'zshaharsozlik LITI" DUK	Toshkent sh.
126.	"Qurilish sohasidagi menejerlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi" DUK	Toshkent sh.

127.	"ToshkentboshplanLITI" DUK	Toshkent sh.
128.	"O'zgeorangmetLITI" DUK	Toshkent sh.
129.	"O'zogh'irsanoatloyiha" AJ	Toshkent sh.
130.	"Tashgiprogor" AJ	Toshkent sh.
131.	"O'zengsanoatloyiha" MChJ	Toshkent sh.
132.	"O'zgazloyiha" MChJ	Toshkent sh.
133.	"Yo'l-loyiha byurosi" MChJ	Toshkent sh.
134.	"O'zGIP" MChJ	Toshkent sh.
135.	"O'zbekkommunal-loyihaqurilish" MChJ	Toshkent sh.
136.	"SuvsanoatfuqaroLITI" MChJ	Toshkent sh.
137.	"Qishloqqurilishloyiha" MChJ	Toshkent sh.
138.	"Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastr loyiha ilmiy-tekshirish davlat instituti" DUK	Toshkent sh.

### **Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi**

139.	"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" DUK	Toshkent sh.
140.	"Fond bozorining axborot-resurslar markazi" DUK	Toshkent sh.
141.	"Milliy multilisting tizimi" DUK	Toshkent sh.
142.	"O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi binolari majmuasidan foydalanish direktsiyasi" DUK	Toshkent sh.
143.	"Davlat aktivlarini boshqarish markazi" DUK	Toshkent sh.
144.	"Privatinforsistem" DUK	Toshkent sh.
145.	"Fonon" DUK	Toshkent sh.
146.	"Toshkent shahar uy-joylarga davlat orderlari va ma'lumotnomalar berish markazi" DUK	Toshkent sh.

### **er resurslari, geodeziya, kartografiyava davlat kadastr davlat qo'mitasi**

147.	"O'zdaverloyiha" yer tuzish bo'yicha ilmiy-loyihalash institutining Qoraqalpoq bo'limi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
148.	"O'zdaverloyiha" yer tuzish bo'yicha ilmiy-loyihalash institutining Navoiy bo'limi" DUK	Navoiy viloyati
149.	"O'zdaverloyiha" yer tuzish bo'yicha ilmiy-loyihalash institutining Xorazm bo'limi" DUK	Xorazm viloyati
150.	"O'zdaverloyiha" DUK	Toshkent sh.
151.	"Geoinformkadastr" DUK	Toshkent sh.
152.	"Geodeziya i kartografiya milliy markazi" DUK	Toshkent sh.

### **Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish davlat qo'mitasi**

153.	"Eko-energiya" Ilmiy tatbiq etish markazi" DUK	Toshkent sh.
154.	"Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti" DUK	Toshkent sh.
155.	"Maxsus tahliliy nazorat markazi" DUK	Toshkent sh.
156.	Davlat ekologiya qo'mitasi huzuridagi "Davlat ekologiya ekspertizasi markazi" DUK	Toshkent sh.
157.	"Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi" DUK	Toshkent sh.
158.	"Binolardan foydalanish va kalital qurilish direktsiyasi" DUK	Toshkent sh.
159.	"Davlat ekologiya ekspertizasi markazi" DUK	barcha hududlarda
160.	"Toza hudud" DUK	barcha hududlarda

### **Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi**

161.	"Qoraqalpoq geologik tasvirlash izlash ekspeditsiyasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
162.	"Orolbo'yi gidrogeologiya ekspeditsiyasi" DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi
163.	"G'arbiy O'zbekiston gidrogeologik ekspeditsiyasi" DUK	Buxoro viloyati
164.	"Janubiy O'zbekiston geologik-tasvirlash ekspeditsiyasi" DUK	Qashqadaryo viloyati
165.	"Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi" DUK	Qashqadaryo viloyati
166.	"Ingichka tajriba texnologiya ekspeditsiyasi" DUK	Samarqand viloyati
167.	"Markaziy O'zbekiston geologik-tasvirlash ekspeditsiyasi" DUK	Samarqand viloyati
168.	"Markaziy O'zbekiston geologik-geofizika ekspeditsiyasi" DUK	Samarqand viloyati
169.	"Chotqol" reabilitatsiya markazi" DUK	Toshkent viloyati
170.	"Sharqiy O'zbekiston geologik-tasvirlash ekspeditsiyasi" DUK	Toshkent viloyati
171.	"Farg'ona gidrogeologiya ekspeditsiyasi" DUK	Farg'ona viloyati
172.	"Geoburtxnika" DUK	Toshkent sh.

173.	"Geoltexta'minot" DUK	Toshkent sh.
174.	"Davlat geologiya axborot markazi" DUK	Toshkent sh.
175.	"erni masofadan zondlash va gis-texnologiyalar markazi" DUK	Toshkent sh.
176.	"Gidromineral resurslar ishlab chiqarish markazi" DUK	Toshkent sh.
177.	"Markaziy laboratoriya" DUK	Toshkent sh.
178.	"Geologiya tarmog'i xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti" DUK	Toshkent sh.
179.	"Kompyuter va geoaxborot texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish markazi" DUK	Toshkent sh.
180.	"Yalpi geologik tasvirlash, izlash ekspeditsiyasi" DUK	Toshkent sh.
181.	"Mineral resurslar instituti" DUK	Toshkent sh.
182.	"Gidrogeologiya va injenerlik geologiya instituti" DK	Toshkent sh.
183.	"Geologiya gidromineral resurslar IICChM" DK	Toshkent sh.
184.	"Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati" DUK	Toshkent sh.
185.	"Akademik Abdullaev nomidagi geologiya va geofizika instituti" DUK	Toshkent sh.
<b>Davlat soliq qo'mitasi</b>		
186.	"Xumson sanatoriysi" DUK	Toshkent viloyati
187.	"Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash markazi" DUK	Toshkent sh.
188.	"Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Markaziy bank</b>		
189.	"Axborotlashtirish bosh markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>"O'zstandart" agentligi</b>		
190.	"Axborot-ma'lumot markazi" DK	Toshkent sh.
191.	"Shtrixli kodlash markazi" DK	Toshkent sh.
192.	"Metrologik xizmatlar ko'rsatish markazi" DK	Toshkent sh.
193.	"O'zbekiston muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish markazi" DK	Toshkent sh.
194.	"Sinov va sertifikatlashtirish Respublika markazi" DK	Toshkent sh.
195.	"Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlari"	hududlarda
<b>O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi</b>		
196.	"Maxsus avtokorxonalar" DUK	Toshkent sh.
197.	"O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi poliklinikasi" DUK	Toshkent sh.
198.	"Teleradiokanal "Yoshlar" AJ	Toshkent sh.
199.	"Oqtosh pansionati" DUK	Toshkent viloyati
<b>Matbuot va axborot agentligi</b>		
200.	"Ma'muriy binolardan foydalanish boshqarmasi" DUK	Toshkent sh.
<b>Avtomobil va daryo transporti agentligi</b>		
201.	"Avtodaryotrans-ilm" DUK	Toshkent sh.
202.	"Avtomobil va daryo transportini rivojlantirish, normativ- texnik ta'minlash respublika markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Fanlar akademiyasi</b>		
203.	"O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ishlar boshqarmasi" DUK	Toshkent sh.
204.	"Respublika termitlarga qarshi kurashish markazi" DUK	Toshkent sh.
205.	"Konstruktorlik byurosi" DUK	Toshkent sh.
206.	"Akademtaminot" DUK	Toshkent sh.
207.	"Radiopreparat" DUK	Toshkent sh.
208.	"Maxsustextizim" DUK	Toshkent sh.
<b>Oliy attestatsiya komissiyasi</b>		
209.	"Axborot-kommunikatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirish markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>"O'zbekneftgaz" MXK</b>		
210.	"Qo'qon mexanika zavodi" AJ	Farg'ona viloyati
211.	"Qashqadaryo neftgaz ishchi ta'minot" AJ	Qashqadaryo viloyati
<b>"O'zbekoziqovqatxolding" XK</b>		
212.	"O'zagroeksport" AJ	Toshkent sh.
<b>"O'zvinosanoatxolding" XK</b>		

213. "Andijon biokimyo zavodi" AJ	Andijon viloyati
214. "Shahrisabz vino-arog" AJ	Qashqadaryo viloyati
215. "Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati" AJ	Samarqand viloyati
216. "Qo'qonspirt" AJ	Farg'ona viloyati
<b>"O'zkiyosanoat" AJ</b>	
217. "Jizzax plastmassa" AJ	Jizzax viloyati
218. "Navoiyazot" AJ	Navoiy viloyati
219. "Samarqandkimyo" AJ	Samarqand viloyati
220. "O'zkiyosanoatloyiha" AJ	Toshkent viloyati
221. "Farg'onaazot" AJ	Farg'ona viloyati
222. "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ	Farg'ona viloyati
<b>"O'zbekenergo" AJ</b>	
223. "Qishloqenergoloyiha" AJ	Toshkent sh.
224. "Gidroloyiha" AJ	Toshkent sh.
<b>"O'zagrokimyoximoya" AJ</b>	
225. "Samarqand viloyat "Agrokimyoximoya"" AJ	Samarqand viloyati
226. "Toshkent viloyat "Agrokimyoximoya"" AJ	Toshkent viloyati
<b>"O'zbekiston temir yo'llari" AJ</b>	
227. "Toshtemiryo'lloyiha" MChJ	Toshkent sh.
228. "Boshtransloyiha" AJ	Toshkent sh.
<b>"O'zqurilishmateriallari" AJ</b>	
229. "Qizilqumtsement" AJ	Navoiy viloyati
230. "Kvarts" AJ	Farg'ona viloyati
<b>"O'zbekkino" MA</b>	
231. "O'zbekfilm" AJ	Toshkent sh.
232. "O'zbekiston Respublikasi ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasi" MChJ	Toshkent sh.
<b>Tijorat banklari</b>	
233. "Turon bank" ATB	Toshkent sh.
234. "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB	Toshkent sh.
235. "Asakabank" ATB	Toshkent sh.
236. "Qishloq qurilish bank" ATB	Toshkent sh.
237. "Agrobank" ATB	Toshkent sh.
238. "Ipotekabank" ATB	Toshkent sh.
239. "Mikrokreditbank" ATB	Toshkent sh.
240. "Aloqabank" ATB	Toshkent sh.
241. "O'zagroeksportbank" ATB	Toshkent sh.
242. "Ipak-yuli" ATIB	Toshkent sh.
<b>Sug'urta kompaniyalari</b>	
243. "O'zagrosug'urta" AJ	Toshkent sh.
244. "Alskom" AJ	Toshkent sh.
245. "Madad" AJ	Toshkent sh.
246. "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	Toshkent sh.
<b>Birjalar</b>	
247. "O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi" AJ	Toshkent sh.
248. "O'zbekiston tovar xom-ashyo birjasi" AJ	Toshkent sh.
249. ""Toshkent" RFB" AJ	Toshkent sh.
<b>"O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi</b>	
250. "Buxoro go'sht-sut savdo" AJ	Buxoro viloyati
251. "Surxondaryo oziq-ovqat mollari" AJ	Surxondaryo viloyati
252. "Farg'ona go'sht-sut savdo" AJ	Farg'ona viloyati
<b>"Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasi</b>	
253. "Kontexnazorat o'quv" DUK	Toshkent sh.
254. "Payvandlash va izolyatsiya ishlarini tekshirish laboratoriyasi" DUK	Toshkent sh.
255. "Sanoat xavfsizligiga ko'maklashish markazi" DUK	Toshkent sh.
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	
256. "Maxsus drenaj-qurilish korxonasi" DUK	Nukus sh.
257. "Taxiatosh issiqlik tarmog'i" MChJ	Taxiatosh sh.

<b>Buxoro viloyati</b>	
258. "Buxoro qurilishinjiniring" DUK	Buxoro sh.
<b>Jizzax viloyati</b>	
259. "Jizzax issiqlik energoqurilish" MChJ	Jizzax sh.
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	
260. "Qarshi ekspeditsiyasi kompleksi" DUK	Qarshi sh.
261. "Shahrisabz yulduzi" DUK (mehmonxona)	Shahrisabz tumani
262. "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Muborak tumani
263. "Mexanizatsiyalashgan sanitar tozalash" DUK	Muborak tumani
264. "Istiqlol g'unchalari" BSO DUK	Yakkabog' tumani
<b>Navoiy viloyati</b>	
265. "Arxiv servis" DUK	Navbaxor tumani
<b>Namangan viloyati</b>	
266. Namangan viloyat A. Navoiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri huzuridagi "Yoshlar teatr studiyasi" DUK	Namangan sh.
<b>Samarqand viloyati</b>	
267. "Maroqandobod" DUK	Samarqand sh.
268. "Kapital qurilish direksiyasi" DUK	Samarqand sh.
269. "Afrosiyob palas" DUK	Samarqand sh.
<b>Surxondaryo viloyati</b>	
270. "Rasmiy mehmonlarni qabul qilish va mehmonxona kompleksi" DUK	Termez sh.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	
271. Guliston shahri hokimligi huzuridagi "Binolardan foydalanish boshqarmasi" DUK	Guliston sh.
<b>Farg'ona viloyati</b>	
272. "Qirguli issiqlik manbai" MChJ	Farg'ona sh.
<b>Xorazm viloyati</b>	
273. "Xorazm trolleybus boshqarmasi" DUK	Urganch sh.
274. "Xorazm yo'l drenaj" DUK	Urganch sh.
275. "Viloyat ichimlik va oqova suv tarmoqlari qurilishi" DUK	Urganch sh.
276. "Xorazm viloyati bog'dorchilik va gulchilik" DUK	Urganch sh.
277. "Urganch maxsus sanitar trans" DUK	Urganch sh.
278. "Amudaryopontonko'prik" DUK	Urganch tumani
279. "Qibla tozabog' qarorgohi" DUK	Xiva tumani
280. "Xivadrenaj" DUK	Xiva tumani
<b>Toshkent viloyati</b>	
281. "Toshnur" DUK	Kibray tumani
282. "Baliqchilikni rivojlantirish ilmiy-sinash stantsiyasi" DUK	Yangiyo'l tumani
<b>Toshkent shahri</b>	
283. "Toshvildrenaj" DUK	Bektemir tumani
284. "Toshkent xalqaro biznes maktabi" DUK	Mirobod tumani
285. "Toshkent shahar hokimligi ma'muriy binolaridan foydalanish direksiyasi" DUK	Mirobod tumani
286. "Oromgoh" DUK	Mirobod tumani
287. "Binolardan foydalanish departamenti" DUK	Mirobod tumani
288. "Toshkent shahar hokimligi investitsiya departamenti" DUK	Mirobod tumani
289. "Ixtisoslashtirilgan qurilish-ta'mirlash sug'orish, ko'kalamzorlashtirish va gidrotexnik inshootlar trestiga qarashli 2-son qurilish ta'mirlash boshqarmasi" DUK	Uchtepa tumani
290. "Chiqindilarni qayta yuklash shoxobchalaridan foydalanish korxonasi" DUK	Uchtepa tumani
291. "Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish loyihasini amalga oshirish guruhi" DUK	Uchtepa tumani
292. "Mustaqillik maydoni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti" DUK	Chilonzor tumani
293. "Chilonzor maxsustrans invest" DUK	Chilonzor tumani

- |      |  |                     |
|------|--|---------------------|
| 294. | "Toshkent shahar hokimligi qurilish va investitsiya dasturlari departamenti" DUK   | Shayxontoxur tumani |
| 295. | "Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi" DUK  | Shayxontoxur tumani |
| 296. | "Metropoliten kapital qurilish" DUK  | Shayxontoxur tumani |
| 297. | "Davsuvxo'jaliknazorat" inspeksiyasining diagnostika markazi" DUK  | Shayxontoxur tumani |
| 298. | "Turkiston" DUK  | Yunusobod tumani    |
| 299. | "Meteoinfosistem" DUK  | Yunusobod tumani    |
| 300. | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Ishlar boshqarmasining qurilayotgan bino va inshootlar birlashgan direksiyasi" DUK | Yakkasaroy tumani   |

### **Boshqalar**

- |      |   |                       |
|------|---|-----------------------|
| 301. | "Buxoroparranda" AJ   | Buxoro viloyati       |
| 302. | "Avtotransstroy mexanizatsiya" AJ   | Navoiy viloyati       |
| 303. | "UPP" AJ  | Navoiy viloyati       |
| 304. | "Agalik-lomann-parranda" AJ   | Samarqand viloyati    |
| 305. | "Toshkent Osiyo" AJ   | Toshkent viloyati     |
| 306. | "Angren Pak" AJ   | Toshkent viloyati     |
| 307. | "Qo'qonmash" AJ   | Farg'ona viloyati     |
| 308. | "Bog'ot avtoxizmat" AJ  | Xorazm viloyati       |
| 309. | "Xorazmsuvqurilish" AJ  | Xorazm viloyati       |
| 310. | "1-sonli oshxona" DUK   | Toshkent sh.          |
| 311. | "2-sonli oshxona" DUK   | Toshkent sh.          |
| 312. | "Davtexnazorat" DUK   | Toshkent sh.          |
| 313. | "Botiometrik markaz" DUK  | Toshkent sh.          |
| 314. | "Transyo'lqurilish" DUK   | Toshkent sh.          |
| 315. | "Otel "O'zbekiston" MChJ  | Toshkent sh.          |
| 316. | "O'zmaxsusmontajqurilish" AK  | Toshkent sh.          |
| 317. | "Toshshahartransxizmat" AK  | Toshkent sh.          |
| 318. | "Toshkent rangli metall parchalari va rezgi-chiqitlarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi" AJ   | Toshkent sh.          |
| 319. | "Sharq" NMAK  | Toshkent sh.          |
| 320. | "RILK Qurilishmashlizing" AJ  | Toshkent sh.          |
| 321. | "Qurilish birlashmasi" AJ   | Toshkent sh.          |
| 322. | "O'zbekiston" AJ  | Toshkent sh.          |
| 323. | "Markaziy Ippodrom" AJ  | Toshkent sh.          |
| 324. | "Sentral Aziya Megastar" MChJ   | Toshkent sh.          |
| 325. | "Qishloqqurilishinvest" IK" MChJ  | Toshkent sh.          |
| 326. | "Mulk-sarmoya brokerlik uyi" AJ   | Toshkent sh.          |
| 327. | "Elsis-savdo" AJ  | Toshkent sh.          |
| 328. | "O'zmedlizing" AJ   | Toshkent sh.          |
| 329. | "Sovplastital" AJ   | Toshkent sh.          |
| 330. | "Germes petrol systems" AJ  | Toshkent sh.          |
| 331. | "Gazavtomatika" AJ  | Toshkent sh.          |
| 332. | Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ko'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi (O'zR Prezidentining 23.10.2017 y. PF-5214-son Farmoni tahriridagi grafa) | Toshkent sh.          |
| 333. | "Toshkent shahar yo'l qurilish va ta'mirlash trest" AJ  | Toshkent sh.          |
| 334. | "Dori-darmon" AK  | Toshkent sh.          |
| 335. | "Moskovsko-Uzbekskiy gostinichno-kommercheskiy sentr" AJ  | Rossiya Federatsiyasi |
| 336. | "Investstroy" AJ  | Rossiya Federatsiyasi |
| 337. | "Uztyumendorstroy" yo'l-qurilish trest  | Rossiya Federatsiyasi |

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo'yicha**

- |      |   |  |
|------|---|--|
| 338. | Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat mulkini ijaraga berish markazlari   |  |
| 339. | Tabiiy monopoliya sub'ektlarining davlat reestriga kiritilgan xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushi (aksiyasi)   |  |
| 340. | Tovar va moliya bozorida ustun mavqeiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar davlat reestri ro'yxatiga kiritilgan xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushi (aksiyasi)   |  |
| 341. | O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida" gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan xususiy lashtirilishi belgilangan davlat mulki ob'ektlari |  |

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar**

**Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimi**

**tomonidan xususiylashtirish to'g'risida qabul**

**qiladigan qarorlari asosida davlat mulki**

**ob'ektlari ro'yxatini belgilash**

**MeZONLARI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4933-sonli Farmoniga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari nostrategik davlat mulki ob'ektlarini sotish to'g'risida faqat ularning bo'ysunuvidagi hududda joylashgan ob'ektlar bo'yicha qaror qabul qilishga haqli.

Toshkent shahar hokimining nostrategik davlat mulki ob'ektlarini sotish to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishilgan holda qabul qilinadi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish bo'yicha buyurtmanomalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish ilovaga asosan sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

3. Nostrategik davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha takliflar va buyurtmanomalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2014 yil 6 oktyabrdagi 279-son qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq tuziladigan hududiy tanlov komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

4. Hududiy tanlov komissiyalari davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha quyidagilar:

- davlat va xo'jalik boshqaruv organlari;
- davlat organlari - davlat unitar korxonalari ta'sischilari, xo'jalik jamiyatlarining aksiyadori (ulushdori) bo'lgan;
- davlat mulkining balans saqlovchilari;
- nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasining rezidentlari yoki norezidentlari) tomonidan taqdim etilgan takliflar va buyurtmanomalarni ko'rib chiqadi.

5. Hududiy tanlov komissiyalari davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha tushgan takliflar va buyurtmanomalarning quyidagi to'rtta mezondan biriga yoki bir nechtasiga muvofiqligini keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan sotish to'g'risida qaror qabul qilishlari uchun ko'rib chiqadi:

1) bo'sh turgan yoki foydalanilmayotgan bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan davlat mulki ob'ektlari;

2) qurilishini tugatishga moliyalashtirish manbai bo'lmagan, bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan qurilishi tugallanmagan ob'ektlar;

3) tugatishga doir ish yuritish jarayonida sotilmagan va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga berilgan bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan ob'ektlar;

4) xo'jalik jamiyatlari va boshqa tashkilotlardagi davlat ulushlari (aksiyalari), agar:

- asosiy vositalarning balans qiymati eng kam oylik ish haqining ellik ming baravaridan ko'p bo'lmasa;
- ishchilarning o'rtacha yillik soni 500 kishidan oshmasa.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari respublika davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining davlat mulki bo'lgan ob'ektlarini, shuningdek erkin iqtisodiy zonalar hududlarida joylashgan bino va inshootlarni sotish bo'yicha qaror qabul qilishlari mumkin emas.

7. Davlat organlarining hududiy bo'linmalariga biriktirib berilgan davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha takliflar va buyurtmanomalar hududiy tanlov komissiyalari tomonidan faqat ularning yuqori turuvchi respublika organlarining roziligi mavjud bo'lgan taqdirda ko'rib chiqiladi.

8. Davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha taklif va buyurtmanomalarning hududiy tanlov komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari qarorlarining qabul qilinishi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2014 yil 6 oktyabrdagi 279-son qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bunda, quyidagi talablarga so'zsiz amal qilinishini va ularning bajarilishi ta'minlanishi shart:

- davlat mulki ob'ektini xususiylashtirishga qonunchilikka muvofiq cheklov va taqiqlar yo'qligini aniqlash;
- davlat mulki ob'ektini sotish paytida undan jamiyat va aholi ijtimoiy qatlami ehtiyojini qondirishga va foydalanishga ehtiyoj yo'qligini aniqlash;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoasining manfaatlarini hisobga olgan holda aniqlash;
- bepul va pullik xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolarning huquqlari tengligini ta'minlash;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirishda oshkoralikni davlat va jamoat nazoratini ta'minlash;
- investorlar uchun teng raqobat sharoitlarini ta'minlash.

***Mezonlarga ILOVA***

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar**

**Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari**

**tomonidan davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish**

## bo'yicha buyurtmanomalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish

### SXeMASI

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I bosqich	Tashabbuskorlar (davlat organlari, ob'ektlarning balansda saqlovchilari, yuridik va jismoniy shaxslar)  Davlat raqobat qo'mitasining hududiy organi, hududiy tanlov komissiyasi	1. Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish bo'yicha buyurtmanomalar va takliflar berish.  2. Davlat raqobat qo'mitasining hududiy organlari tomonidan buyurtmanomalar va takliflarni ko'rib chiqish.  3. Masalani ko'rib chiqish uchun hududiy tanlov komissiyasiga kiritish.	xohishiga ko'ra  bir oy muddatda
II bosqich	Hududiy tanlov komissiyasi	1. Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish bo'yicha buyurtmanomalar va takliflarni tasdiqlangan mezonlarga mosligini ko'rib chiqish.  2. Davlat mulki ob'ektini xususiylashtirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosalarni berish.  3. Xususiylashtirish dasturi loyihasini shakllantirish va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tasdiqlash uchun kiritish*	bir oy muddatda  Buyurtmanoma kelib tushishiga qarab (ammo yiliga kamida bir marta)
III bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari	Davlat mulki ob'ektini xususiylashtirish bo'yicha qaror qabul qilish, xususiylashtirish dasturini tasdiqlash*	10 kun ichida
IV bosqich	Davlat raqobat qo'mitasining hududiy organi	Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan davlat mulki ob'ektlarini sotish**	belgilangan muddatlarda

*\*) Boshqa davlat mulki ob'ektlarini sotish bo'yicha boshqa buyurtmanoma va takliflar bo'lmaganda, zaruratga ko'ra, xususiylashtirish to'g'risidagi qaror bitta davlat ob'ekti bo'yicha yakka tartibda ham qabul qilinishi mumkin.*

*\*\*\*) Davlat mulki ob'ektlarini, shu jumladan, hududiy xususiylashtirish dasturlariga kiritilgan ob'ektlarni sotish Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2014 yil 6 oktyabridagi 279-son qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.*

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/documents/annulled/pp3067>